Adir ekotizimlarining iqtisodiy samaradorligini baholash tabiiy resurslardan barqaror foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun ushbu ekotizimning o'ziga xos tabiiy sharoitlari (masalan, relyefi va yog'inlar miqdori) hamda resurslarining (tuproqlari va biologik xilma-xilligi) hozirgi holatini baholash zarur.

Viloyatimiz adirliklarining umumiy maydoni 44 034,6 gektarni tashkil etadi. Ushbu hududlarning sug'oriladigan qismi 21 550,4 gektar bo'lib, mahalliy aholi, tadbirkorlar va fermer xo'jaliklari tomonidan faol foydalanib kelinmoqda. Mazkur hududlardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug'orilmaydigan hududlarning maydoni 22 484,2 gektarni tashkil etadi. Ushbu maydonlardan, asosan, bahor mavsumida (mart–iyun oylarida) chorva mollarini boqishda foydalaniladi. Mazkur hududlarning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish uchun ularning tabiiy sharoitlaridan kelib chiqadigan o'ziga xos yondashuvlar va tegishli investitsiyalar talab etiladi.

Hudud ekotizimlarini boshqarish samaradorligini baholash uchun bir qator ko'rsatkichlarni tahlil qilish zarur. Ushbu ko'rsatkichlar ekologik holatni, boshqaruv samaradorligini, ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni hamda barqaror rivojlanish darajasini kompleks baholash imkonini beradi. Quyida hudud ekotizimlarini boshqarish samaradorligini tahlil qilishda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

Ekologik ko'rsatkichlar.

Andijon viloyati adir ekotizimlarida, asosan, efemer o'simliklar keng tarqalgan. Ularning vegetatsiya davri juda qisqa bo'lib, ko'pi bilan 100 kunni tashkil etadi. Taqqoslash uchun, boshqa o'simliklar vegetatsiya davri o'rtacha 217 kunni tashkil qiladi. Bahor oylarining nisbatan salqin bo'lishi hamda atmosfera yog'inlarining boshqa ekotizimlarga (tekislik hududlariga) nisbatan ko'proq bo'lishi (yiliga 250–350 mm) ushbu o'simliklarning jadal rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, quyosh nuri yaxshi tushadigan qiyaliklarda ular yanada yaxshi rivojlanadi.

2 Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.



Quyosh nuri yaxshi tushadigan qiyaliklarda 1 m² maydonda 874 tadan 981 tagacha, quyosh nuri nisbatan kam tushadigan hududlarda esa 610 tadan 782 tagacha o'simlik uchraydi. Vegetatsiya davri yakunlangandan so'ng ushbu o'simliklarning qoldiqlari (iyun oyining 2-yarmida) yig'ilib, tarozida tortilganda, 1 m² maydondan o'rtacha 80 g o'simlik qoldiqlari aniqlandi. Demak, yil davomida yig'ilgan biomassa 1 gektar maydonga 8 kg ni tashkil etadi. Hududning biomassa samaradorligi quyidagi formula yordamida aniqlandi:

$$E = \frac{B}{A}$$

Bu yerda: **E** — biomassa samaradorligi (kg/ga/yil), **B** — yil davomida yig'ilgan biomassa (kg), **A** — yer maydoni (ga).

Ta'kidlash joizki, hosil bo'lgan 8 kg biomassa keyingi vegetatsiya davrigacha shamol ta'sirida boshqa hududlarga ko'chishi yoki atmosfera yog'inlari ta'sirida hududning botiq qismlariga siljishi mumkin. Mazkur holat biomassa qoldiqlarining tuproq unumdorligini oshirishdagi tabiiy hissasini ma'lum darajada cheklaydi.

Ekologik samaradorlik.

Adir ekotizimlarida efemer o'simliklarning ekologik samaradorligini quyosh nuri ta'sirida shakllanadigan o'simlik zichligi (bioraqobat), biomassaning tez hosil bo'lishi hamda resurslardan foydalanish samaradorligi orqali baholash mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar quyidagicha tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval
Adir o'simliklarini joylashuvi³

T/r	Hudud qiyaligi turi	O'simlik zichligi (tup/m ²)	O'rtacha qiymat (tup/m ²)
1	Quyoshli qiyalik	874–981	927,5
2	Soyali qiyalik	610–782	696

Bunda zichliklar o'rtasidagi farq:

$$927,5 - 696 = 231,5 \text{ tup/m}^2.$$

Vegetatsiya davri tahlili:

Efemer o'simliklar uchun — 100 kun;

Boshqa o'simliklar uchun — 217 kun.

Shunga qaramay, efemer o'simliklar qisqa vegetatsiya davrida yuqori zichlik va biomassa hosil qiladi. Bu ularning mavjud resurslardan samarali foydalanishi hamda tez rivojlanish strategiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ekologik samaradorlik ko'rsatkichi (ESK):

Biz ekologik samaradorlikni quyidagi formula asosida baholaymiz:

$$ESK = \frac{\text{O'simlik zichligi}}{\text{Vegetatsiya kunlari}} (\text{tup/m}^2/\text{kun})$$

Quyoshli qiyalikda:

$$ESK_{\text{Quyoshli}} = \frac{927,5}{100} = 9,275 \text{ tup/m}^2/\text{kun}$$

Soyali qiyaliklarda:


$$ESK_{\text{Soyali}} = \frac{696}{100} = 6,96 \text{ tup/m}^2/\text{kun}$$

Bu ikki qiyalik (quyosh yaxshi tushadigan va soya) lar samaradorligini solishtirganimizda:

$$\frac{9,275}{6,96} \approx 1,33$$

Natijalar shuni ko'rsatadiki, quyoshli qiyaliklarda o'sadigan efemer o'simliklar soyali hududlardagi o'simliklarga nisbatan resurslardan 33 % samaraliroq foydalanadi (2-rasm).

3 Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.



2-rasm. Adir ekotizimlarida efemer o'simliklarning ekologik samaradorlik ko'rsatkichlari⁴

Andijon viloyati adir ekotizimlarida quyosh nuri yaxshi tushadigan qiyaliklarda efemer o'simliklar:

o'simliklar zichroq joylashadi (927,5 tup/m²);

biomassani tezroq hosil qiladi;

soyali hududlarga nisbatan **33 %** yuqori ekologik samaradorlikka ega;

vegetatsiya davrining qisqaligiga qaramay, ekologik ustunlikni namoyon etadi.

Bundan kelib chiqadiki, har bir hududning o'ziga xos tabiiy xususiyatlari va ekologik sharoitlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Hudud organik moddalar bilan boyitilib, chorva mollari ilmiy asoslangan me'yorlarda boqilgan taqdirda, biomassa samaradorligini yanada oshirish imkoniyati mavjud.

Hozirgi kunda respublikamizning boshqa viloyat va shaharlarida bo'lgani kabi, Andijon viloyatida ham «Mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini olib borishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan hududlarda ko'chat ekish, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Andijon viloyati boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil kuz mavsumida viloyatning tuman va shaharlarida 3 mln 261 ming 400 tup, 2023-yil mart–may oylarida esa 9 mln 635 ming tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekilgan. Ushbu ezgu ishlarda korxonalar, tashkilotlar va ta'lim muassasalari faol ishtirok etmoqda. Jumladan, «Andijon HETK» AJ jamoasi Andijon tumanidagi «Yangi Andijon» massivining adir hududida joylashgan 20 sotix maydonga 100 tup pavlovniya va 40 tup archa ko'chatini ekib, yashil hudud barpo etdi.

Adir hududlari ekotizimlarining ekologik samaradorligini har tomonlama baholash ekologlar, gidrologlar, iqlimshunoslar va sotsiologlar ishtirokidagi ko'p tarmoqli yondashuvni talab etadi. Turli parametrlar bo'yicha ma'lumotlarni to'plash hamda ekotizimning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shuningdek, ekologik baholash jarayoniga mahalliy hamjamiyatlar va manfaatdor tomonlarni jalb etish tabiatni muhofaza qilish hamda ekotizimlarni samarali boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tuproq sifati

Adir hududi tuproqlarining turli tabiiy sharoitlarda hosil bo'ladigan donadorligi nafaqat kattaligi, balki shakli jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Har bir tuproq tipi o'ziga xos strukturaga ega. Tuproq strukturasi,

⁴ Manba: muallif tomonidan tayyorlangan;



asosan, uch xil shakli — kubsimon, prizmasimon va plitasimon turlari ajratiladi. Odatda, tuproq strukturasi 0,25–10 mm gacha bo'lgan makrostruktura va 0,25 mm dan kichik donachalardan iborat mikrostruktura bo'linadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qumoq va soz mexanik tarkibli tuproqlarda optimal (qulay) strukturaning shakllanishi uchun 0,25 mm dan katta donachalar miqdori 70–80 % ni, jumladan, suvga chidamli donachalar ulushi 40–60 % ni tashkil etishi muhim ahamiyatga ega. Bunday tuproqlar, asosan, adir hududlarining botiq qismlarida uchraydi. Demak, yirik makrostrukturalar tuproqning eng qulay suv-havo rejimini ta'minlaydi.

Andijon viloyati adir hududlarining sug'orilmaydigan qismi, asosan, qiyaligi yuqori bo'lgan yonbag'irlardan tashkil topgan. Ushbu hudud tuproqlari boshqa ekotizimlar tuproqlaridan farq qilib, ularda gil miqdorining kamligi yoki ayrim joylarda kamayib ketishiga suv eroziyasi ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, sug'orilmaydigan adir hududlarining ayrim qismlarida (qiyalik darajasi nisbatan past, hududning ichkari qismida joylashgan, sug'orma dehqonchilik olib borilmaydigan va antropogen ta'siri kam bo'lgan maydonlarda) tuproq tarkibidagi gil miqdori yuqori bo'lishi ham mumkin. Bunga efemer va butasimon ko'p yillik o'simliklarning qoldiqlari ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Suv resurslari

Viloyatimiz adir hududlarida olib borilayotgan obikor dehqonchilik, mamlakatimizning boshqa adir hududlarida bo'lgani kabi, asosan nasoslar yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ayrim adir hududlarini sug'orishda ichimlik suvi tarmoqlaridan foydalanish holatlari ham uchrab turadi. Bu esa suv resurslaridan yanada oqilona va samarali foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur tadqiqotda ushbu masalani hal etish yo'llaridan biri sifatida atmosfera yog'inlarini maxsus havzalarda yig'ish va ulardan sug'orish maqsadida foydalanish usuli tavsiya etildi.

Andijon viloyati gidrometeorologiya markazidan o'n bir yillik kuzatuv ma'lumotlari olindi. Ularning tahlili natijasida yillik yog'in miqdori o'rtacha 250 mm ni tashkil etishi aniqlandi. Ma'lumki, yomg'ir suvlarini yig'ish tizimini tanlash suv yig'ish muhiti va hudud qiyaligining xususiyatlariga bog'liq.

Albatta, yog'in suvlarini yig'ishda o'ziga xos tabiiy omillar hisobga olinadi. Masalan, hudud tekislik bo'lib, o'simliklar bilan qoplangan bo'lsa, suv oqimi koeffitsiyenti (**C**) 0,3 ni tashkil etadi. Adir hududi o'simliklar bilan qoplangan bo'lsa, **C = 0,4**, o'simlik qoplami mavjud bo'lmagan hududlarda esa **C = 0,5–0,6** bo'ladi. Shunga mos ravishda yig'iladigan suv miqdori ham turlicha bo'ladi.

Masalan, o'simlik qoplami mavjud bo'lgan 10 gektar (100 000 m²) adir hududidan taxminan 10 000 m³ yog'in suvini yig'ish mumkin (1-jadval). Tabiiyki, adir tuprog'i o'simlik qoplami bilan qoplanmagan, toshloq yoki qiyaligi yuqori bo'lgan hududlarda suv oqimi boshqa hududlarga nisbatan kuchliroq bo'lib, **C = 0,5–0,6** ni tashkil etadi. Mazkur holatni baholash uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshirildi.

1-jadval
Yog'in suvlari miqdori va oqim koeffitsiyenti⁵

Hudud turi	Oqim koeffitsiyenti (C)	Yig'iladigan suv miqdori (m ³)
Tekislik, o'tloq	0,3	7 500
Adir, o'simlik bilan qoplangan	0,4	10 000
Adir, o'simlik qoplami mavjud bo'lmagan, toshloq	0,5–0,6	12 500–15 000

Hisob-kitob parametrlari

Maydon: 10 gektar = 100 000 m²;

Yillik yog'in miqdori: 250 mm = 0,25 m;

Oqim koeffitsiyenti: C = 0,4;

Sug'orish me'yori: 3 500 m³/ga.

1. Yig'iladigan suv hajmi

$Q = P \times A \times C$

Bu yerda:

⁵ Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.



Q – yig'ildigan suv hajmi (m³);
 P – yillik yog'in miqdori (m);
 A – maydon yuzasi (m²);
 C – oqim koeffitsiyenti.

Hisob-kitob:


$$Q = 0,25 \times 100\,000 \times 0,4 = 10\,000 \text{ m}^3.$$

2. Sug'orilishi mumkin bo'lgan maydon

Sug'oriladigan maydon = Q / sug'orish me'yori, ya'ni:

$$10\,000 / 3\,500 \approx 2,86 \text{ ga}.$$

Demak, 10 gektar adir hududidan bir yil davomida taxminan 10 000 m³ suv yig'ilishi hamda ushbu suvdan foydalanish hisobiga 2,86 gektar maydonni bir marta to'liq sug'orish imkoniyati mavjud. Ushbu holat «Adir hududlarida yomg'ir suvlarini yig'ish va sug'orish modeli» (3-rasm) orqali ifodalangan.



3-rasm. Adir hududlarida yomg'ir suvlarini yig'ish va sug'orish modeli⁶

Shunda, sug'orilmaydigan maydon (22454,2 gektar) ni qanchasini sug'orish imkoni bo'ladi?

Andijon viloyatining sug'orilmaydigan adir hududlari (22484,2 ga) maydoni bo'yicha qancha suv yig'ilishini topamiz.

Har 10 gektar maydondan, 10000 m³ suv yig'iladi, demak:


$$\text{Yig'ildigan umumiy suv} = \left(\frac{22\,484,2}{10} \right) \times 10\,000 = 2\,248,42 \times 10\,000 = 22\,484\,200 \text{ m}^3$$

Yig'ilgan ushbu 22484200 m³ suv bilan qancha maydonni sug'orish mumkin?

$$\text{Sug'orilishi mumkin bo'lgan maydon} = \frac{22\,484\,200}{3\,500} \approx 6\,424,06 \text{ gektar}$$

Natijalarga ko'ra, viloyatimiz adir hududlarining 22 484,2 gektarlik sug'orilmaydigan maydonlarida yil davomida to'planadigan suv hisobiga taxminan **6 424,06 gektar** yer maydonini bir marta sug'orish imkoniyati mavjud (4-rasm).

⁶ Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.



4-rasm. Sug'orilmaydigan maydonlarda yil davomida to'planadigan suv miqdori⁷

Hisob-kitob natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy sug'orish usullaridan foydalanilganda mavjud suv resurslari barcha maydonlarni sug'orish uchun yetarli emas. Shu sababli tomchilatib sug'orish texnologiyalarini qo'llash (egatlab sug'orishga nisbatan suv sarfini 40–50 % gacha kamaytiradi) hamda sug'orish ishlarini, imkon qadar, tungi vaqtda amalga oshirish suv resurslaridan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

Biologik xilma-xilligi

Barcha ekotizimlarning bioxilma-xilligi darajasi va salomatligi hudud aholisining nisbiy salomatligi bilan bevosita bog'liq. Bioxilma-xillik darajasi past bo'lgan, aholi zich yashaydigan shaharlarda astma va boshqa kasalliklar ko'proq uchraydi.

Eslatib o'tamiz! Adir hududlari ekotizimlarini boshqarishda bioxilma-xillik masalasi nihoyatda muhimdir. Ekotizimlarni boshqarishda yangicha yondashuv va munosib siyosat yuritish hozirgi globallashuv jarayonida muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Cho'l va adir hududlari ekotizimlarini baholash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning aksariyatida ekologik-iqtisodiy samaradorlik masalasiga yetarli e'tibor qaratilmagan. Adir hududi ekotizimlarining asosiy komponenti o'simliklar bo'lib, ularning tuzilishi va dinamikasi ekotizimlarni boshqarishda katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ham ta'kidlab o'tilganidek, chorva mollarini boqish me'yorlariga amal qilinmasligi, inson omili va turlararo raqobat adir hududlari o'simliklarining soni hamda arealiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Adir ekotizimlari turli dorivor, manzarali va relik (relik — o'simlik yoki hayvonot olamining bir vaqtlar xilma-xil va keng tarqalgan populyatsiyasining qoldig'i sifatida saqlanib qolgan) o'simliklardan iborat. Ularning orasida, ayniqsa, dorivor, alkaloidli (o'simliklarda, kamdan kam hollarda esa hayvon organizmida uchraydigan hamda asos xossasiga ega bo'lgan azotli organik birikmalar), vitaminli, efir moyli, saponinli, bol beruvchi va boshqa o'simliklar alohida o'rin tutadi. Hozirgi kunga kelib, o'simlik xomashyolariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi ularni har tomonlama chuqurroq tadqiq etishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi⁸ hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi PF-16-son Farmonlari⁹ viloyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'zgarishlarga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2025-yilning «Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili» deb e'lon qilingani mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta'minlash,

⁷ Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.

⁸ "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2017-yil 21-aprel;

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi PF-16-son Farmon: <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>



ekologik muammolarni hal etish orqali iqtisodiy o'sishga erishishga qaratilgan muhim omillarga (ekologiya, yashil iqtisodiyot va xalqaro burch) asoslanadi.

Prezidentimiz ushbu yil munosabati bilan Hukumatga eng muhim vazifalarni qamrab oluvchi davlat dasturini ishlab chiqishni topshirdi. Ushbu dasturda «yashil» texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko'kalamzor hududlarni keskin ko'paytirish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish hamda eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlash masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilishi ta'kidlandi.

Ko'pchilikka ma'lumki, viloyat adirliklarining katta maydonlarida maishiy chiqindilar poligonlari mavjud. Ushbu chiqindilardan Xitoyning «Clean Water and Blue Sky» kompaniyasi tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. Demak, O'zbekistonda maishiy chiqindilardan olinadigan gaz asosida elektr energiyasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. Ta'kidlanishicha, mazkur loyihaga Xitoyning «Clean Water and Blue Sky» kompaniyasi tomonidan 250 million AQSH dollari miqdorida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar yo'naltirilgan. Ishlab chiqarish viloyatning Xo'jaobod tumani adirliklaridagi 30 gektar yer maydonida amalga oshirilmoqda¹⁰.

Olib borilgan tahlillarga ko'ra, adir hududlarining tabiiy sharoiti hamda yig'iladigan yomg'ir suvlari miqdoridan kelib chiqib, ushbu ekotizimning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin.

Iqtisodiy samaradorlikni hisoblashda eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkichlar qatoriga investitsiyalarning daromadliligi (ID) va foyda-xarajat nisbati (FXN) kiradi.

1. Investitsiyalarning daromadliligi (ID)

$$ID = \frac{B - C}{C} \times 100\%$$

ID — investitsiyadan olingan foydaning investitsiya qilingan xarajatlarga nisbati.

Bu yerda:

B — investitsiya natijasida olingan foyda;

C — investitsiya qilingan xarajatlar.

2. Foyda-xarajat nisbati (FXN)

FXN — foydaning umumiy xarajatlarga nisbati.

$$FXN = \frac{B}{C}$$

B - olingan umumiy foyda;

C - umumiy xarajatlar.

Agar, bir gektar maydonda bir yil davomida olinadigan iqtisodiy foyda (masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari daromadi) 300 ming so'm bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik quyidagicha hisoblanadi:

Investitsiyalarning daromadliligi (ID) ni hisoblash:

$$ID = \frac{300000 \text{ so'm} - 100000 \text{ so'm}}{100000 \text{ so'm}} \times 100\% = 200\%$$

demak, har 100 ming so'm investitsiya uchun 200 ming so'm foyda olishga erishish mumkin.

Foyda-xarajat nisbati (FXN) ini hisoblash:

$$FXN = 1 + \frac{300000 \text{ so'm}}{100000 \text{ so'm}} = 3$$

demak, har 1 so'm xarajat uchun 3 so'm foyda olinishi mumkin.

Ushbu hisob-kitoblar yordamida ekotizimning iqtisodiy samaradorligini aniq baholash mumkin. Ushbu yondashuvlar xarajatlar va foyda o'rtasidagi nisbatni aniqlash hamda investitsiya kiritish yoki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Hudud ekotizimlarini boshqarish samaradorligini baholashda mazkur ko'rsatkichlarni muntazam kuzatib borish va tahlil qilish ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda resurslardan foydalanishni optimallashtirish uchun muhimdir. Ushbu ko'rsatkichlarning aniqligini ta'minlash va ularni vaqt o'tishi bilan monitoring qilib

¹⁰ Andijonda maishiy chiqindilardan elektr energiyasi ishlab chiqariladi. <https://yuz.uz/news/andijonda-maishiy-chiqindilardan-elektr-tok-ishlab-chiqariladi>



borish orqali hududning ekologik holatini yaxshilash hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyati kengayadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar natijalariga ko'ra, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Viloyatimiz adir hududlarining tuproq strukturasi va yer osti suvlari tahlili natijalariga ko'ra, hududda barpo etilayotgan aholi punktlarida yashovchi aholini mavjud yer osti suvlaridan artezian quduqlari orqali ichimlik suvi bilan ta'minlash imkoniyatlari mavjud.

Baland qiyaqlarda tuproq tarkibidagi organik moddalarning kamayishi yoki yo'qolishining oldini olish maqsadida chorva mollarini boqish me'yorlariga qat'iy rioya etilishi, shuningdek, sug'oriladigan maydonlarda almashlab ekish qoidalariga amal qilinishi maqsadga muvofiq.

Mavsumiy yog'inlar ta'sirida eroziya va surilma jarayonlarining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni jadallashtirish, jumladan, sug'orish tizimlarini takomillashtirish, suvni tejash texnologiyalarini joriy etish, o'simlik qoplamini tiklash hamda qoplovchi o'simliklarni ko'paytirish zarur. Shuningdek, adir hududlari tuproqlarining sho'rlanishga moyilligini inobatga olib, sho'rga chidamli o'simlik turlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Hudud ekotizimi barqarorligini mustahkamlash maqsadida maxsus qo'riqxonalar va tabiat yodgorliklarini tashkil etish, tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish, bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha mahalliy aholi va boshqa foydalanuvchilar uchun ekologik ta'lim hamda targ'ibot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Bioxilma-xillik holatini muntazam monitoring qilish va ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish orqali ekotizim holatini baholab borish hamda zarur chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish tavsiya etiladi.

Iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish va mahalliy ekotizimlarni asrash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni yanada jadallashtirish lozim.

Adir ekotizimlarini boshqarishda yer resurslaridan barqaror foydalanish, bioxilma-xillikni tiklash, ekotizim monitoringi uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda tabiiy resurslarni boshqarishda mahalliy hamjamiyatlarning faol ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Suvni tejash va undan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida irrigatsiya texnologiyalarini modernizatsiya qilish, imkon qadar atmosfera yog'inlaridan samarali foydalanish usullarini joriy etish hamda zamonaviy sug'orish texnologiyalarini keng qo'llash tavsiya etiladi. Natijada ichimlik suvi iste'molini 20–30 % ga qisqartirish va suv resurslarining barqarorligini 15–20 % ga yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

O'rmonzorlar va yashil hududlarni kengaytirish adir hududlarining ekologik holatini yaxshilashga sezilarli hissa qo'shadi. Rekultivatsiya ishlari va yashil zonalarini barpo etish orqali tuproq eroziyasining oldini olish hamda bioxilma-xillik ko'rsatkichlarini 5–10 % ga yaxshilash imkoniyati mavjud.

Adir hududlarida energiya iste'molini kamaytirish hamda qayta tiklanadigan energiya manbalari, xususan, quyosh energetikasini rivojlantirishni jadallashtirish maqsadga muvofiq. Bu kelgusida quyosh energiyasi va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish darajasini 10–15 % ga oshirish hamda ekologik bosimni kamaytirishga xizmat qiladi.

Mahalliy ekotizimlarni saqlash va ularga ta'sir etuvchi omillarni kamaytirish maqsadida turli muhofaza qilish loyihalarini amalga oshirish tavsiya etiladi. Bunday loyihalar qatoriga milliy bog'lar va tabiiy rezervatlarni tashkil etish ham kiradi.

Adir hududlarida mikroiklim sharoitlarini yaxshilash maqsadida qishloq xo'jaligi va qurilish usullarini optimallashtirish lozim. Bunda tuproq qoplamini saqlash, ekinlar almashinuvi va iqlimni qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlarni amalga oshirish mikroiklim sharoitlarini 10–15 % ga yaxshilash imkonini beradi. Ushbu ekotizimlarni boshqarish amaliyotlari o'zgarib borayotgan iqlim sharoitlari, iqtisodiy vaziyat va texnologik yutuqlarga mos ravishda muntazam takomillashtirib borilishi maqsadga muvofiq.

Adir hududlaridagi o'simlik va hayvonot olamini inventarizatsiya qilish, ya'ni ma'lum hududdagi o'simlik va hayvon turlarining xilma-xilligini qayd etish hamda baholash ishlarini tizimli ravishda amalga oshirish lozim. Bu bioxilma-xillikni baholash, uni saqlash va undan barqaror foydalanish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Bahor faslida adir hududlarini bezab turuvchi efemer o'simliklarni dam oluvchilar va yo'lovchilar tomonidan yulib yoki uzib olishning oldini olish bo'yicha tushuntirish va targ'ibot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Ekotizimlarni boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni davlat tomonidan o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash hamda moliyalashtirish ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>.
3. Qodirov Hamidullo Madaminjonovich. Aholi zich yashaydigan hududlarda adir ekotizimlarini boshqarishning nazariy qarashlari. *Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti metodik jurnali*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16753405>.
4. «Mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini olib borishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5776122>.
5. Kadyrov Hamidullo Madaminjonovich. Factors Affecting the Management of Hill Region Ecosystems and Their Characteristics. *World Bulletin of Management and Law (WBML)*. Volume 46, May 2025. ISSN: 2749-3601. Available at: <https://www.scholarexpress.net>.
6. Zheng Li et al. Sustainable Development of Arid Rangelands and Managing Rainwater in Gullies, Central Asia. *Water*. 2020. Vol. 12, No. 9. Article 2533. <https://doi.org/10.3390/w12092533>.
7. Andijonda maishiy chiqindilardan elektr energiyasi ishlab chiqariladi. <https://yuz.uz/news/andijonda-maishiy-chiqindilardan-elektr-tok-ishlab-chiqariladi>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>